

O'smirlardagi aggressiv holatlarning psixologiyada o'rganilganligi.

Xolmuminova Umida Ixtiyor qizi

Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Tezisda o'smirlardagi aggressiv holatlarning psixologiyada o'rganilganligi, shaxs taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarida aggressiv (tajovuzkor) xulq-atvorning shakllanishi va namoyon bo'lishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Agressiya va aggressiv xulq-atvor, shaxs aggressiv xulq-atvorining shakllanish sharoitlari, oilaviy munosabatlar, agressiya va delinkvent xulq-atvor, o'smir ruhiyati, psixologik o'rganilishi.

Kirish Hozirgi kunda agressiya holatlarini namoyon bo'lishiga bo'lgan ilmiy qiziqishlar sezilarli darajada ko'paydi. Psixologlar agressiya holatining tadqiq qilishda uni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlashga, oilaviy munosabatlar o'rganishga harakat qilmoqdalar. Chunki agressiya holati psixologlar nuqtai nazardan juda chuqur holat bo'lib, uni sabablari birdan yoki to'satdan yuzaga keladigan turkilar bo'lmay, balki uzoq vaqt davomida ta'sir etadigan omillar natijasida yuzaga keladi. Ko'p xollarda ota-onalarning munosabatlari o'smirlik davridagi yoshlar ruhiyatiga ta'siri ko'proq hisoblanadi.

Aynan oila bag'rida farzand boshlang'ich ijtimoiylashuvni oladi. Oilada a'zolarining munosabatlari misolida u boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadi, xulq-atvori va munosabatlar turlarini tushunib boradi, bu tushunvhalar uning o'smirlik va balog'at yillarida saqlanib qoladi. Ota-onaning farzandining noto'g'ri xatti-harakatiga nisbatan reaksiyasi, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xususiyatiga, oiladagi uyg'unlik kelishmovchilik darjasini uning balog'at yillarida atrofdagilarga nisbatan munosabatlariga ta'sir etuvchi omillardir. Odamdagi aggressiyani aniqlash jarayoni juda murakkab va buni ijtimoiy psixologlar anchadan buyon tadqiq etib kelmoqda. Shunday savollar tug'ilishi tabiiy, agar kimdir boshqa birovning qorniga kuchli zarba bilan ursa bu agressiya bo'ladimi yoki yo'qmi? Agar kimdir hazillashib yengil zarba bilan birovning qorniga ursachi? Futbol yoki boks o'yinlari ham aggressiyaga misol bo'ladi desa hamma ham shu fikrga qo'shiladimi? Agar kimdir zarar keltiruvchi mish-mishlarni tarqatsachi? Agar kimdir ostonangizga o'tirib olsa-yu, sizning o'tib ketishingizga xalaqit bersa, bu aggressiya yoki yo'qmi? Ba'zi bir ijtimoiy psixologlar aggressiyani boshqa birovga atayin ziyon yetkazish, jismoniy yoki ijtimoiy zarar

yetkazish, ba'zi hollarda xujumkor obyekti yo'q qilish deb ta'riflaydilar. Bu ta'rifni to'g'ri desak ham bo'ladi, ammo ba'zi bir cheklanishlarga e'tibor berishimiz lozim. Birovga savol bersangizu, u sizga javob qaytarmasa yoki javob berishdan bosh tortsa bu harakatda biz birovning joniga tajovuzni yoki ziyon yetkazishni ko'rmayapmiz. Xuddi shu kabi holat ostonasida o'tirgan kishi siga xalaqit beradiyu, ammo ziyon yetkaza olmaydi.

ASOSIY QISM

O'smirlik davri yosh davrlari orasida o'zining shiddatli kechishi bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. O'smirlik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacga bo'lган davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda boshqa yosh guruhlaridan shiddatli kechishiga sabab, o'smirlik davri organizmida ham biologik, ham psixologik, hamda fiziologik jihatdan o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar o'smir yoshning xulq-atvorida, ruhiy holatida ham namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida ota-onalar va bolalar o'rtasida nizoli vaziyatlar yuzaga keladi. Ota-onalarda o'smir farzandlarida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar haqida ma'lumot yetishmasligi, o'smirdagi o'zgarishlarini erkaliklaar sifatida e'tirof etish nizoli vaziyatlarni yanada keskinlashishiga sabab bo'ladi. Ba'zi oilalarda ota-onalar 13-14 yoshdagagi o'smir farzandlaridagi muqarrar ravishdagi o'zgarishlarni sezmaydilar.

Agressiya atamasi lotin tilidan olingen bo'lib, "aggreedi" – "tajovuz qilmoq" ma'nosini anglatadi. Psixologiyada "agressiya" atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar agressiyaga salbiy yondashuvlar qilsalar (X. Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolter,Y.Mojginskiy), ayrimlari agressiyani (L.Bender, D.Richardson, R.Beron) ijobiy baholaydilar.

O'smirlarning tajovuzkor axloqini o'z vaqtida aniqlash bola shaxsining rivojlanishidagi noxush variantning oldini olish uchun juda zarur hisoblanadi. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lган davrni tashkil qiladi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllanadi . Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lган munosabati, qiziqishlari, qadriyati yo'nalishi keskin o'zgaradi. Ularda ilgarigi qiziqishlar so'nadi va yangi qiziqishlar paydo bo'ladi. Bunda ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirlarning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, o'zidan qoniqmasligi, agressiya, xavotirlanish kayfiyat beqarorligi, depressiv kechinmalar,

tez ranjish, arzimas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish, o‘zini past baholash kabi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning “inson va hayvonlarda agressiyaning tug’ma instinkti mavjud bo’ladi”, degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog’liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko’ra , agressivlik frustratsiyasi oqibatidir.

Bunday qarashlarni birinchi bo’lib J.Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nzar ham amalyotda o’z tasdig’ini topmadi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga ko’ra, maqsadga yo’naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to’siq shaxsda agressiv xatti- harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq- atvorning kelib chiqish sabablarihaqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog’liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatida baholanadi:

1. Sub’yektning o’z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi;
2. Frustratsiyaning mavjudligi;
3. Affekt yoki stress tipidagi emotsional qo’zg’alishning kuchliligi;

R.Kratchflid va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifi keltirilgan. Birinchisi, xulq –atvorning zohiriy alomatlariga asoslanadi:“Agressiya-kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq atvorning har qanday ko‘rinishidir”. Ikkinci, odamning botiniy niyatlari bilan bog’liq , ya’ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: “Agressiya- boshqa bir insonga ziyon yetkazishga maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatidir”. Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko’plab psixologlar agressiyani mavjuddotning yashash uchun kursh bilan bog’liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar. D. Bass taklif etgan ta’riflardan biriga ko’ra boshqalar uchun xavf tug’diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor agressiyadir.

Bir necha taniqli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ikkinchi ta’rif esa quyidagicha: u yoki bu harakatlar agressiya sifatida tasniflanishi uchun ular oxir oqibat xafa qilish yoki haqorotlashga olib kelishi emas, balki xafa qilish va haqorotlarni maqsad qilib qo'yishi lozim. Nihoyat, uchinchi nuqtai nazar X.Zilman tomonidan bildirilib , unga ko'ra, agressiya o'zgalarga tan jarohati va boshqa jarohatlar yetkazish demakdir. “Agressiya” tushunchasining talqinidagi kelishmovchiliklarga qaramay , ijtimoiy fanlar sohasidagi ko'plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai nazardan bayon etilgan ma'nosiga ko'proq tayanadilar.

Shuningdek, aggressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtiradigan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyaning turli- tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib , mazkur fe'l –atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nishonova Z.T., Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» -Toshkent: 2017, 241-b
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” -TOSHKENT: 2013, 130-b
3. Кернберг О.Ф. Агрессия при расстройствах личности и перверсиях. М, 1998- 134 с